# Adliya organlari huquqiy maqomini takomillashtirishda “huquqiy ta’sirchanlik” mezonining nazariy-huquqiy ahamiyati

**Shoyimqulov Oybek**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida adliya organlarining huquqiy maqomini nazariy-huquqiy jihatdan takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Unda adliya organlari maqomini faqat vazifa va funksiyalar majmui sifatida emas, balki davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni, normativ-huquqiy tartibga solish sifatiga ta’siri, huquqiy ekspertiza, huquqiy monitoring, metodik rahbarlik va huquqiy xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan bog‘liq kompleks institut sifatida baholash zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda adliya organlarining huquqiy maqomini belgilashda “huquqiy ta’sirchanlik” mezoni alohida ilmiy kategoriya sifatida ilgari suriladi. Ushbu mezon adliya organlari tomonidan beriladigan taqdimnoma, ogohlantirish, metodik ko‘rsatma, huquqiy ekspertiza xulosasi va monitoring natijalarining real huquqiy oqibat keltirib chiqarish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tezisda adliya organlari faoliyatining an’anaviy nazorat modelidan huquqiy muammolarni oldindan aniqlovchi, tahlil qiluvchi va bartaraf etishga ko‘maklashuvchi “huquqiy servis instituti” modeliga bosqichma-bosqich o‘tishi zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** adliya organlari, huquqiy maqom, huquqiy ta’sirchanlik, vakolat, funksiya, kompetensiya, huquqiy monitoring, huquqiy ekspertiza, davlat boshqaruvi, huquqiy servis, qonun ustuvorligi.

# Теоретически-правовое значение критерия «правовая эффективность» в улучшении правового статуса судебных органов

**Шоимкулов Ойбек**

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной работе анализируются вопросы теоретического и правового совершенствования правового статуса судебных органов в Республике Узбекистан. Она основана на необходимости оценки статуса судебных органов не только как совокупности задач и функций, но и как сложного института, связанного с их местом в системе государственного управления, их влиянием на качество нормативно-правового регулирования, юридической экспертизы, правового контроля, методического руководства и деятельности по оказанию юридических услуг. В исследовании выдвигается критерий «правовой эффективности» как отдельная научная категория при определении правового статуса судебных органов. Этот критерий служит для определения степени, в которой заявления, предупреждения, методические

указания, заключения юридической экспертизы и результаты мониторинга, выданные судебными органами, имеют реальные правовые последствия. В диссертации также обосновывается необходимость постепенного перехода от традиционной модели контроля за деятельностью органов правосудия к модели «института юридических услуг», который выявляет, анализирует и помогает устранять правовые проблемы на ранней стадии.

**Ключевые слова:** органы правосудия, правовой статус, эффективность права, полномочия, функции, компетенция, правовой контроль, юридическая экспертиза, государственное управление, юридические услуги, верховенство права.

# Theoretical-Legal Significance Of The “Legal Effectiveness” Criteria In Improving The Legal Status Of Justice Bodies

**Shoyimkulov Oybek**

Master’s student of Tashkent State Law University

**Abstract.** This thesis analyzes the issues of theoretical and legal improvement of the legal status of justice bodies in the Republic of Uzbekistan. It is based on the need to assess the status of justice bodies not only as a set of tasks and functions, but also as a complex institution related to their place in the state administration system, their impact on the quality of regulatory and legal regulation, legal expertise, legal monitoring, methodological guidance and legal service activities. The study puts forward the criterion of “legal effectiveness” as a separate scientific category in determining the legal status of justice bodies. This criterion serves to determine the degree to which the submissions, warnings, methodological instructions, conclusions of legal expertise and monitoring results issued by justice bodies have real legal consequences. The thesis also justifies the need for a gradual transition from the traditional control model of the activities of justice bodies to the model of a "legal service institution" that identifies, analyzes and helps to eliminate legal problems in advance.

**Keywords:** justice bodies, legal status, legal effectiveness, authority, function, competence, legal monitoring, legal expertise, public administration, legal service, rule of law.

## KIRISH

Huquqiy davlatni shakllantirish jarayonida davlat organlarining huquqiy maqomini aniq belgilash alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki har qanday davlat organining samaradorligi uning vakolatlari kengligi bilan emas, balki ushbu vakolatlarning qonuniy chegaralanganligi, ijro mexanizmlari, javobgarlik asoslari va huquqiy ta’sir kuchi bilan belgilanadi. Ayniqsa, adliya organlari faoliyatida bu masala yanada muhimdir. Sababi adliya organlari normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ta’minlash, huquqiy ekspertiza o‘tkazish, huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish, davlat organlariga metodik yordam ko‘rsatish va aholining huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish orqali davlat huquqiy siyosatining muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori Adliya vazirligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilovchi muhim hujjatlardan biri bo‘lib, unda vazirlikning asosiy vazifalari, huquqlari, tizimi va faoliyat yo‘nalishlari mustahkamlangan. 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmon esa ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalari mas’uliyatini oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan. Shu jihatdan, adliya organlari maqomini zamonaviy davlat boshqaruvi talablari asosida qayta baholash, ularning real huquqiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini kuchaytirish va vakolatlar tizimini yanada aniqlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

**ASOSIY QISM**

Adliya organlarining huquqiy maqomi murakkab va ko‘p tarkibli yuridik kategoriya hisoblanadi. Huquqiy maqom, avvalo, davlat organining davlat mexanizmidagi institutsional o‘rni, vakolatlari, funksiyalari, kompetensiyasi, huquqiy kafolatlari va javobgarlik chegaralarining o‘zaro bog‘langan tizimidir. Shu sababli adliya organlarining huquqiy maqomini “vakolat–funksiya–kompetensiya–huquqiy kafolat–javobgarlik” elementlari birligi orqali talqin qilish ilmiy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Adliya organlarining boshqa ijro etuvchi hokimiyat organlaridan farqli jihati shundaki, ular faqat ma’muriy boshqaruvni amalga oshiruvchi organ emas, balki davlat boshqaruvi tizimida huquqiy tartibotning izchilligini ta’minlovchi maxsus institut sifatida faoliyat yuritadi. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, korrupsiyaga qarshi ekspertizani tashkil etish, huquqni qo‘llash amaliyotini umumlashtirish, davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlariga metodik ko‘mak ko‘rsatish adliya organlarining huquqiy siyosatni amaliyotga tatbiq etishdagi rolini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, adliya organlarining mavjud vakolatlari amaliyotda har doim ham yetarli darajada ta’sirchan natija bermasligi mumkin. Masalan, davlat organlari faoliyatida qonunchilik hujjatlari noto‘g‘ri qo‘llanilganda, adliya organlari tegishli taqdimnoma yoki ogohlantirish kiritishi mumkin. Biroq ushbu hujjatlarning ijrosi, ularni bajarmaganlik oqibatlari va mas’ul shaxslarga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llash mexanizmi har doim ham aniq va yetarli darajada kuchli emas. Shu sababli adliya organlari huquqiy maqomini baholashda “vakolat bor yoki yo‘q” degan yondashuvdan tashqari, ushbu vakolat real natija beradimi, huquqbuzarlikni bartaraf eta oladimi, huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’sir ko‘rsatadimi degan savollar ham muhim ahamiyatga ega.

Aynan shu nuqtai nazardan “huquqiy ta’sirchanlik” mezonini ilmiy muomalaga kiritish maqsadga muvofiqdir. Huquqiy ta’sirchanlik deganda adliya organlarining o‘z vakolatlari orqali boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar, yuridik xizmatlar va huquqni qo‘llash amaliyotiga real huquqiy ta’sir o‘tkazish imkoniyati tushuniladi. Bu mezon adliya organlari faoliyatining deklarativ emas, balki amaliy natijadorligini baholash imkonini beradi. Bunday yondashuvda taqdimnoma, ogohlantirish, huquqiy monitoring va o‘rganishlar orqali huquqiy oqibat keltirib chiqarish darajasi adliya organlari maqomini baholashning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adliya organlari faoliyatini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ularning klassik nazorat organi modelidan huquqiy servis instituti modeliga bosqichma-bosqich o‘tkazish hisoblanadi. Bunda adliya organlari huquqbuzarlikdan keyin munosabat bildiruvchi emas, balki huquqiy muammolarni oldindan aniqlovchi, davlat organlariga metodik ko‘mak beruvchi hamda fuqarolarga tezkor va sifatli huquqiy xizmatlar ko‘rsatuvchi institut sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Adliya organlari huquqiy maqomining takomillashuvi, shuningdek, vakolatlar tizimining aniq chegaralanishini talab etadi. Amaliyotda ayrim davlat organlari funksiyalarining takrorlanishi, huquqni

qo‘llash bo‘yicha yagona yondashuvning yetarli darajada shakllanmagani, yuridik xizmatlar faoliyatida metodik yordamga ehtiyoj mavjudligi adliya organlarining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirishni taqozo etadi. Shu sababli adliya organlarining huquqiy monitoring, huquqiy audit va metodik rahbarlik vakolatlarini aniq protsessual tartibga solish dolzarb hisoblanadi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, adliya organlarining huquqiy maqomi huquqiy davlat sharoitida davlat boshqaruvi samaradorligi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompleks yuridik institutdir. Ushbu maqomni faqat vazifalar ro‘yxati sifatida emas, balki vakolat, funksiya, kompetensiya, huquqiy kafolat, javobgarlik va huquqiy ta’sirchanlik elementlari birligida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

**Birinchidan,** adliya organlari faoliyatini baholashda “huquqiy ta’sirchanlik” mezonini joriy etish zarur. Bu mezon adliya organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar, kiritiladigan taqdimnomalar, o‘tkaziladigan monitoring va ekspertiza natijalarining real ijro mexanizmlariga ega yoki ega emasligini aniqlashga xizmat qiladi.

**Ikkinchidan,** adliya organlarining huquqiy monitoring va huquqiy audit vakolatlarini aniq protsessual tartibga solish lozim. Ayniqsa, davlat organlari va ularning hududiy bo‘linmalarida qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyoti muntazam tahlil qilinishi, aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha majburiy bajarilishi lozim bo‘lgan choralar tizimi ishlab chiqilishi kerak.

**Uchinchidan,** adliya organlari faoliyatida “nazorat qiluvchi organ” modelidan “huquqiy servis instituti” modeliga bosqichma-bosqich o‘tish maqsadga muvofiq. Bunda adliya organlari fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari uchun huquqiy muammolarni oldindan aniqlash, maslahat berish, metodik yordam ko‘rsatish va raqamli xizmatlar orqali tezkor yechim taklif etuvchi institut sifatida rivojlanishi lozim.

**To‘rtinchidan,** adliya organlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud elektron tizimlarni o‘zaro integratsiya qilish, huquqiy monitoring natijalarini tahlil qilishda Big Data va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ularning huquqiy maqomini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/3681790

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/-6937312

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/doc-passport/-5914998